

Tafsirda nafs illatlari va uni poklash vositalari bayoni

Habibullayeva Halima Farxod qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik mutaxassisligi magistranti

[*halimahabibullayeva@gmail.com*](mailto:halimahabibullayeva@gmail.com)

Telefon raqami +998935678923

Ilmiy rahbar: Agzamova Muhabbatxon Mirtoxirovna

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik va islom sivilizasiyasini

o'rganish ICESCO kafedrasi mudiri dosent v.b.

Kishilik jamiyatida har bir insonning holati, o'z atrofidagi insonlar bilan munosabatidagi xulq atvori, yaxshi-yomon xislatlari muhim ahamiyatga ega. Bir inson o'z shaxsiyatini go'zallashtirib, salbiy sifatlardan uzoqlashgani sari jamiyatdagi muammolar isloh bo'la boshlaydi. Tazkiyatun nafs mavzusini o'rganish asnosida nafsni poklovchi sifatlardan va nafsni halokatga olib boruvchi sifatlardan asosiy o'rinni egallashini ko'rish mumkin. Inson ushbu sifatlarning yomonliklaridan xalos bo'lib, maqtalgan yaxshi sifatlarni o'zlashtirgani sari komil inson darajasiga ko'tariladi. Mufassir Ismoil Haqqiy Bursaviyning nafsni salbiy illatlardan poklash yo'llari "Yusuf" surasida keltirgan ishoriy ta'villari orqali tahlil etiladi.

Yusuf (a.s.) qissasi Qur'onda to'liq holatda keltirilgan qissa hisoblanib, Bursaviyning komil inson tarbiyasida tutgan yo'lini ushbu qissaning ishoriy ma'nolarini o'rganish davomida aniqlash mumkin.

Bursaviy "Yusuf" surasini ishoriy ta'vilida tasavvuf ahli orasida ko'p qo'llaniladigan qalb, ruh, nafs ammora, his qilish a'zolari, sabr, o'lim kabi tushunchalarni ochib berishga va nafs ammoraning komillikka yetish yo'lidagi duch keladigan sinovlari, qiyinchiliklarini qanday bosib o'tilishini ko'rsatishga harakat qilgan. Yusuf (a.s.) qissasi davomida har bir holatni ishoriy ma'nolarini keltirgan. Suraning 4-oyatida kelgan: "Eslang, Yusuf o'z otasiga dedi: "Ey, otajon!

Men tushimda o'n bitta yulduz, quyosh va oyning menga sajda qilayotgan hollarida ko'rdim"¹, oyatini ishoriy tafsirida Yusuf (a.s.)ni "qalb"ga ishora deb beradi. Yusuf (a.s.) ko'rgan tushidagi "o'n bir yulduz"ni tashqi beshta sezgilarga ya'ni "ko'rish", "eshitish", "hidlash", "ta'm bilish", "teginish"ga va ichki oltita sezgi bo'lgan "fikrlash", "tasavvur qilish", "yodlash", "aldanish", "qo'rqish", "sezish"ga ishora, "quyosh" Yoqub (a.s.)ni "ruh"ga, "oy"ni "nafs"ga o'xshatmoqda². Bu bilan mufassir insonning kamolotga yetishi uchun ruh sulton, qalb vazir, nafs, his-tuyg'ular va aqliy quvvatlarning barchasi ruh va qalbga itoat qilishi kerak degan g'oyani ilgari suradi.

Bursaviy ushbu oyatni tafsiri davomida hoyi-havaslar va nafsoniy kuchlar qalbni (Yusuf (a.s.)) ruhdan uzoq bo'lishini, qalb buyurgan pok yo'lga yurmaslikni xohlashini aytgan. Insondan qalbning uzoqlashishi bilan nafs kuchayadi. Og'a-inilar orasida Yahudo ("mufakkira" fikrlovchi kuchga ishora qilingan) Yusufni o'ldirmaslikni, balki uni quduq qa'riga tashlab, biror yo'lovchi olib ketishi aytgan, qalbni o'ldirish imkonsiz ish bo'lgani sababli, qalbni bashariyat dunyosiga tashlash, shahvoniy ishlar orasida qolishi ruh, aql va his tuyg'ular nafsga ergashishi uchun yetarli bo'ladi deb ishora qilgan³.

Suraning 13-14-oyatlarida keltirilgan: "(Ya'qub) dedi: Uni olib ketishingiz meni juda tashvishlantiryapti, sizlar undan g'aflatda bo'lgan chog'ingizda (nogoh) uni bo'ri yeb ketishidan qo'rqaman". Aytidilar: "Biz bir to'da bo'la turib, mabodo uni bo'ri yeb ketsa, biz ziyonda bo'lamiz-ku"⁴ oyatini ishoriy sharhida muallif qalb (Yusuf a.s.) ruhning (Ya'qub a.s.) nazoratida ekan, turli hoyi-havaslar va shahvoniy kuchlar bilan mashg'ul bo'lmasligiga ishora qilgan. Ruh (Ya'qub a.s.) ularga (og'a-inilariga) nafsning hiylalarini bilgani uchun ishonmasligini aytgan. Qalb ruhning nazoratisiz qolganida unga bo'ri ya'ni shayton yaqinlashadi va uni halok qiladi. Bundan esa, butun tana a'zolari ziyonda qoladilar deb, – ishoriy tafsir qiladi.

¹ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasini. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2001. – B. 235.

² Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhul bayon. – Bayrut: Dorul kutubil i'lmiyya, 2018. – J. IV. – B. 223.

³ Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhul bayon. – Bayrut: Dorul kutubil i'lmiyya, 2018. – J. IV. – B. 235.

⁴ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasini. – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyoti, 2001. – B. 236.

Yusufning Zulayhoga qarshi chiqishi qalbning nafs istaklariga qarshi chiqishiga qiyoslangan bo'lib, bu bilan nafsni jilovlashga, uning makriga kirib qolmaslikka ishora bor deydi. Qalb (Yusuf) nafsning (Zulayhoning) uyidan chiqib ketmas ekan, Robbisiga qanchalar yaqin bo'lmasin nafsning yomonliklaridan halos bo'lmaydi. Nafs (Zulayho) qalbgga (Yusufga) rahmat va hikmat eshiklarini yopadi hamda o'ziga itoat qilishga chaqiradi. Shu tariqa mufassir ishoriy tafsirning to'liq namunasini tadqim etgan.

Qissa davomida Yusuf (a.s.)ning ayollar makriga tushmagani va Robbisidan najot so'raganini Bursaviy "Agar qalb (Yusuf a.s.) dunyo va hoyi-havaslarga ergashmasa (Zulayho va ayollarga) shariat ichida Allohning himoyasida turadi", – deya ta'vil qiladi. Shuningdek, tafsirda misr podshohining tushini ta'birini keltirib, bu yerdagi yettita semiz sigir salbiy illatlar bo'lgan "baxillik", "shahvat", "hasad", "adovat", "g'azab", "kibr" va "ochko'zlik"ga qiyoslangan. Nafs tarbiyasida ushbu sifatlardan halos bo'lishi uchun o'zida yetti yaxshi go'zal xislatlarni shakllantirishi lozimligini aytgan. Yetti ozg'in sigirni "saxiylik", "iffat", "havas" (hasaddan xoli bo'lgan), "shafqat", "halimlik", "tavoze", "qanoat"ga qiyoslagan, inson ushbu sifatlarni o'zida mujassam qilsa, Robbi huzurida haqiqiy bandalik maqomiga ko'tarilishi va nafsni poklanishini, yuqoridagi yetti yomon xislatni xuddi ozg'in sigirlar semiz sigirlarni yo'q qilganiga qiyoslaydi.

Ushbu o'rinda Bursaviyning nafsni poklashdagi uslubini ko'rish mumkin. Insondagi baxillik illatini saxiylik bilan, shahvatini iffatli bo'lish bilan, hasad, ko'ra olmaslik illatini havas bilan, adovat, dushmanchilik kabi o'ziga ham, yon atrofidagi insonlarga ham zarar beradigan sifatini shafqat, mehribonlik bilan, g'azab va jahldorlikni halimlik, muloyimlik bilan, kibr, manmanlikni, tavoze va kamtarlik bilan, ochko'zlikni qanoat bilan to'g'rilanish g'oyasini ilgari suradi.

Baxillikning lug'aviy ma'nosi karamli, ochiq qo'l bo'lishga zid ma'noni bildirib, istilohda o'zida yoki o'zgada bor bo'lgan narsani bermaslik deb izohlanadi. Baxillikning davosi inson o'z havoyi-nafsini jilovlab, saxiy bo'lishga harakat qilishi orqali amalga oshadi. Infoq-ehsonning ikki turi bo'lib, biri shariatdagi farz va vojib o'laroq qilinadigan ishlar, bu zakotni ado etish, ota-onaga yaxshilik qilish, silayi

rahm qilish kabi amallar, ikkinchisi muruvvat va saxiylik o'laroq qilinadigan ishlar, farz va vojibni ado etishda kamchilikka yo'l qo'ygan inson aniq baxildir, ammo muruvvat jihatidan insonlarga o'z molidan bermaslik yomon ko'rilgan hunuk ishlardan hisoblanib, insonning qo'lidagi mol-u davlati miqdoriga qarab uning yomonligi ortib boradi. Haqiqiy saxiylik hech qanday tama'siz yaxshilik qilish, molini sarflashdir"⁵.

Nafsning yana bir salbiy illati shahvatlarga berilish bo'lib, Bursaviy shahvatni "Oli Imron" surasining 14-oyatida shunday ta'riflaydi: "Nafsning shahvatlarga berilishi uning barcha xohish-istaklarini bajarish bo'lib, buni mutasavvif olimlar yaxshi sanashmagan, kim shahvatlariga to'liq ergashsa, nafsni istagan barcha narsani qilaversa, u hayvoniy darajaga tushib qoladi. Alloh taolo farishtalarni yaratdi va aql berdi, hayvonlarni yaratdi va ularga shahvatlarni berdi. Insonni yaratganida bu ikki unurni birga jamlab berdi, toki kimning aqli shahvatidan ustun bo'lsa, u farishtalardan oliyroq darajaga ko'tariladi, kim shahvatlarga yengilib, nafsiga qul bo'lsa, hayvondanda pastroq darajaga tushib qoladi. Shahvatlarga berilish sababidan inson halol va haromni ajrata olmaydigan holatga keladi"⁶. Shahvatlariga ergashmagan iffatli insonlar haqida "Baqara" surasining 273-oyatida Alloh taolo "Iffatlari sababli bilmagan kishi ularni boy deb o'ylaydiganlar" iborasi bilan ifodalagan. Ya'ni iffatlari sababli ular so'ramadi, bu bilan nafsni taklif qilgan xohishga qarshi turdi va Robbisidan hayo qildi"⁷, – deb Bursaviy tafsir qiladi.

Hasad so'zining lug'aviy ma'nosi "archish", "shilish" ma'nolarini bildirib, istilohda "o'zidan boshqada bo'lgan ne'matni ko'ra olmaslik, yo'q bo'lishi istash" ma'nolarini anglatadi. Hasad qiluvchi inson bu amali bilan faqat o'zini qiynashi haqida "Nas" surasining 5-oyati tafsirida Bursaviy sharhlab aytadi: "Agar inson o'z nafsida hasad namoyon bo'lganini ko'rsa, hasad barcha yomonlik va zararlarni boshiga olib kelishini bilishi lozim. Hasad faqat hasad qiluvchining ichini yemiradi, undan o'zganing emas. Hasad bu o'zidan boshqada bo'lgan narsa uchun afsuslanishdir. Alloh taologa osmonda qilingan eng birinchi gunoh hasad tufayli

⁵ Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhul bayon. – Bayrut: Dorul kutubil i'lmiyya, 2018. – J. IV. – B. 435.

⁶ Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhul bayon. – Bayrut: Dorul kutubil i'lmiyya, 2018. – J. II. – B. 10.

⁷ Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhul bayon. – Bayrut: Dorul kutubil i'lmiyya, 2018. – J. I. – B. 440.

sodir bo'lgan, Iblis insonga hasad qildi va Allohning rahmatidan quvildi. Yerdagi eng birinchi isyon ham Qobilning Hobilga qilgan hasadi sababidan ro'y berdi. Alloh taolo hasadni suraning oxirida keltirishidan hasad eng yomon illat ekanini tushunish mumkin. Ushbu oyatning ishoriy ma'nosi agar nafsi ammora qalbgga hasad qilsa, qalbning nurini o'chishini, malomatga qolib ne'matlarga noshukurlik qilishini xohlaydi. Ne'matga noshukurlik qilish uni yo'q bo'lishiga olib keladi⁸. Hasadning ziddi havas hisoblanib, shariat havas qilishdan qaytarmagan. Havas inson boshqa bir kishiga yetgan ne'matdan sevinib, o'sha ne'matni o'z egasida barqaror bo'lib turishini xohlagan holda, o'ziga ham shunday yaxshilik yetishini tilashidir.

Bursaviy ushbu illatlardan xalos bo'lib, nafsni poklashning vositalari sifatida ilm, amal va zikrni asosiy o'ringa qo'ygani, shu orqali inson nafsini ammoralikdan olib chiqib, yuqori darajalarga ko'tara olishini bayon qiladi.

Avvalo, havoyi hafsga ergashishning zararlari haqida bilishi, o'z-o'zini tergap, havoyi nafsini jilovlab, shariat chegarasida yurib, qilgan barcha amallarini xolis niyat bilan qilishi tazkiyatun nafsning eng birinchi shartlaridan hisoblanib, ushbu bilganalariga amal qilib yashashi lozim. Shu asnoda "zikr"ning ham nafsni poklashdagi ahamiyatini ochib bergan. Zikr nafsni poklaydigan va axloqni sayqallaydigan eng kuchli omillardan biri hisoblanadi. Zikrning istilohiy ma'nosi haqida mutasavvif ulamolar: "Banda Robbisini tili va dili bilan eslashidir. Zikr U zotning o'zini, sifatlarini, amallarini, hukmlarini eslash, yohud Kitobini tilovat qilish, U zotga duo qilish, Undan biror narsani so'rash, U zotni ulug'lash va unga shukr keltirish kabi narsalarni o'z ichiga oladi", – deya ta'riflaydilar.

"Yusuf" surasi ishoriy tafsiri davomida mufassir "Yusuf (a.s.) misr podshohidan xazinalarga egalik qilishni so'rashini dunyoga egalikni so'rashi deb tushunmaslik lozim. Qalb (Yusuf a.s.) ruhdan (podshohdan) tana azolariga (xazinalarga) egalik qilishni so'ramoqda. Agar tana a'zolariga qalb hukmronlik qilsa, bu a'zolar ne'mat o'laroq foydalaniladi. Agar ularga nafs hukmronlik qilsa, gunoh va ma'siyatga yetaklaydi", – deya sharhlaydi. Qissa so'ngida Yusuf (a.s.)ni Ya'qub (a.s.)ning yoniga qaytishi va otasi Ya'qub (a.s.)ni yuqori taxtga chiqarishini

⁸ Ismoil Haqqiy Bursaviy. Ruhul bayon. – Bayrut: Dorul kutubil i'lmiyya, 2018. – J. X. – B. 562.

– qalbni ruhning yoniga qaytishiga va ruh podshoh, qalb vazir, tana a'zolari, his-tuyg'ular ularga itoat qilishi bilan inson kamol topishi mumkin degan g'oyani mufassir Ismoil Haqqiy Bursaviy ochib bergan.

“Yusuf” surasida Bursaviyning ishoriy ta'villarining ma'nolarini o'rganish davomida insonning ma'naviy kamolotga yetishiga to'sqinlik qiladigan salbiy sifatlarlarning jamiyatga ta'siri, yomon axloqlardan qutulib go'zal xulqlar bilan ziynatlanishning foydalari hozirgi kun bilan bog'lab o'rganildi. Bursaviy inson ma'nan sog'lom bo'lishi uchun ruh sulton, qalb vazir, tana a'zolar va boshqa hislar bu ikkisiga tobe bo'lishi bilan havoyi nafsning xiylalariga aldanmay yashash mumkinligini ochib bergan.